



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI RAISING BUYRUG'I

20 26-yil « 13 » fevral

57 -son

Komissiya tuzish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunining 20-moddasi hamda "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 30-moddasiga asosan

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF-259-son Farmonining 15-bandiga muvofiq 2026-yil 1-martdan boshlab xarid komissiyasining raisi etib faqatgina davlat buyurtmachisining rahbari, uning o'rinbosari yoki ularning vazifasini bajaruvchi shaxs tayinlanishi lozimligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunining 20-moddasiga asosan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholash, tartibga solish hamda davlat xaridlarini raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirish va g'olibni (g'oliblarni) tanlash maqsadida komissiya tarkibi (keyingi o'rinlarda – Komissiya) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Oliy sud raisi

/imzolangan/

B. Islamov

Buyruqdan ko'chirma asliga to'g'ri

Kadrlar boshqarmasi
bosh konsultanti



J.Izbosarov

KO'CHIRMA

Oliy sud raisining
2026-yil 13 -fevraldagi
54 -son buyrug'iga
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Xarid komissiyasi T A R K I B I

- | | |
|---|---|
| 1. Polvanov Shuxrat
Tagaymuratovich | – Oliy sud raisining o'rinbosari – ma'muriy
ishlar bo'yicha sudlov hay'ati raisi,
Komissiya raisi; |
| 2. Qodirov Murodullo
Ibodulloyevich | – Ishlar boshqarmasi boshlig'i, Komissiya
raisi o'rinbosari; |
| 3. Umarov Jasur
Majidovich | Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
departamenti boshlig'i, Komissiya a'zosi; |
| 4. Nazarov Hasan
Islomovich | – Ishlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,
Komissiya a'zosi; |
| 5. Mamarasulov
Xusniddin Djalilovich | – Xo'jalik bo'limi boshlig'i, Komissiya
a'zosi; |
| 6. Musayev Otabek
Furqatovich | – Kadrlar boshqarmasi katta konsultanti –
Ichki nazorat guruhi rahbari, Komissiya
a'zosi; |
| 7. Xasanova Marhamat
Saidakbarovna | – Buxgalteriya bosh mutaxassisi,
Komissiya a'zosi; |
| 8. Ikramov Azizbek
Turabek o'g'li | – Xo'jalik bo'limi bosh mutaxassisi,
Komissiya kotibi. |

Izoh: Komissiya vakillari boshqa ishga o'tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Komissiyasi raisi yo'qligida uning vakolatlarini komissiya raisi o'rinbosari amalga oshiradi.